



“TASHQI SAVDO BALANSIDA EKSPORTNING O‘RNI VA UNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA’SIRI”

Aktamov Sardor Akram o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Buxgalteriya hisobi fakulketi talabasi

Annotsatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo balansida eksportning tutgan o‘rni hamda uning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda eksport hajmining o‘shishi yoki kamayishi mamlakatning yalpi ichki mahsuloti, inflyatsiya darajasi, milliy valyuta kursi va byudjet barqarorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada eksport tarkibida xomashyo mahsulotlari ulushi yuqoriligi, tayyor mahsulot eksportining yetarli darajada rivojlanmagani, logistika va marketing infratuzilmasidagi muammolar alohida tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *tashqi savdo balansi, eksport, makroiqtisodiy barqarorlik, YAIM, inflyatsiya, diversifikatsiya, iqtisodiy xavfsizlik.*

Аннотация: *В статье анализируется роль экспорта во внешнеторговом балансе Республики Узбекистан и его влияние на макроэкономическую стабильность. В исследовании научно обосновано влияние увеличения или снижения объемов экспорта на валовой внутренний продукт страны, уровень инфляции, курс национальной валюты и бюджетную стабильность. Отдельно анализируются высокая доля сырьевых товаров в структуре экспорта, недостаточное развитие экспорта готовой продукции, а также проблемы логистической и сбытовой инфраструктуры.*

Ключевые слова: *внешнеторговый баланс, экспорт, макроэкономическая стабильность, ВВП, инфляция, диверсификация, экономическая безопасность.*

Abstract: *This article analyzes the role of exports in the foreign trade balance of the Republic of Uzbekistan and its impact on macroeconomic stability. The study scientifically substantiates how an increase or decrease in export volumes affects the country's gross domestic product, inflation rate, national currency exchange rate, and budget stability. The article separately analyzes the high share of raw materials in the export structure, the insufficient development of finished product exports, and problems in logistics and marketing infrastructure.*

Keywords: *foreign trade balance, export, macroeconomic stability, GDP, inflation, diversification, economic security.*

Kirish:

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari chuqurlashib, xalqaro savdo aloqalari mamlakatlar iqtisodiy o‘shishining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda.



Xususan, tashqi savdo balansi ko'rsatkichlari orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish imkoniyatlari va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi baholanadi. Shu bois, eksportning o'sishi milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda global miqyosda iqtisodiy inqirozlar, logistika zanjirlarining uzilishi, xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi va geosiyosiy omillar tashqi savdo balansiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda eksportni qo'llab-quvvatlash, uning tarkibini diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish davlatlarning strategik maqsadiga aylanmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, Janubiy Koreya, Germaniya, Yaponiya va Xitoy kabi mamlakatlarda eksport hajmining o'sishi iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatgan, tashqi savdo balansi ijobiy saldosini esa ularning makroiqtisodiy barqarorligini mustahkamlagan.

O'zbekiston Respublikasi ham so'nggi yillarda tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlarga integratsiyasini chuqurlashtirish yo'lida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning izchil izlanishlari va oqilona qarorlari orqali O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo balansida eksportning hajmi oshib bormoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasi 62,6 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, shundan **eksport hajmi 25,5 milliard dollar**, import esa **37,1 milliard dollarni** tashkil etdi. Eksport tarkibida sanoat mahsulotlari, to'qimachilik, rangli metall, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetakchi o'rinda turadi. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakat tashqi savdosining rivojlanib borayotganini, biroq eksport-import muvozanatini ta'minlashda hali yechilishi zarur bo'lgan masalalar mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 27.12.2024-yildagi PF-228-sonli "Eksportni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarining Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi farmonida eksportni qo'llab-quvvatlashga doir bo'lgan hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish va ularni amalga oshirish haqida so'z boradi. Eksport qiluvchi tashkilotlarning transport xarajatlaring ma'lum qismini qoplab berishni ta'kidlaydi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti Raximov Eshmurod Normuradovich tomonidan yozilgan. "O'zbekistonda eksport salohiyatini oshirish yo'llari" nomli maqolasida O'zbekiston Respublikasida hududida eksport salohiyatini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Muallifning fikricha, eksportning o'sishi mamlakatning milliy daromadiga bevosita ta'sir qiladi. Ko'proq eksport qilish orqali xalqaro bozorlardan tushumlar ko'payadi va bu mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sishini qo'llab-quvvatlaydi.



Eksportning oshishi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va ishlab chiqarish sektori kengayishi va bu o'z navbatida yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishiga olib keladi va aholi bandligini yaxshilaydi.⁴⁹

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo siyosatini erkinlashtirish, eksportni rag'batlantirish va yangi bozorlarni o'zlashtirish borasida muhim islohotlar amalga oshirildi. Bu jarayonlar tashqi savdo balansining ijobiy shakllanishi, valyuta tushumlarining ko'payishi hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakat eksportining tarkibi hali ham xomashyo mahsulotlariga yuqori darajada bog'liq. Paxta, gaz, oltin va metall kabi resurslarga asoslangan eksportning ustunligi tashqi bozorlardagi narx tebranishlariga sezilarli darajada ta'sirchanlikni yuzaga keltiradi. Shu sababli eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, xalqaro bozorlar bilan integratsiyani chuqurlashtirish, logistika tizimini takomillashtirish va eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali tashqi savdo balansini yanada barqarorlashtirish mumkin. Valyuta tushumlarining barqaror o'sishi makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, inflyatsiya darajasini nazorat qilish va milliy valyuta kursini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.12.2024-yildagi PF-228-sonli "Eksportni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarining Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi farmoni.<https://lex.uz/uz/docs/-7283095>.

3. Raximov Eshmurod Normuradovich. "O'zbekistonda eksport salohiyatini oshirish yo'llari". "Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion G'oyalar" jurnali. 62-67-betlar.

Sobirova Muxlisa. "Eksport rivojlanishining makroiqtisodiy barqarorligiga ta'siri". Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2025-yil, may.

5. Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb sayti: www.stat.uz.

⁴⁹ Raximov Eshmurod Normuradovich. "O'zbekistonda eksport salohiyatini oshirish yo'llari". "Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion G'oyalar" jurnali.